


**SURXONDARYO  
VILOYATINING SANOAT  
ISHLAB CHIQRISHI  
2024-yil yanvar  
(dastlabki ma'lumot)**



## Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2024-yil yanvar oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar oylarida viloyat korxonalari tomonidan 488,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,1 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 90,2 % ni tashkil etdi.

**B**


Tog'-kon sanoati va  
ochiq konlarni ishlash

**C**

Ishlab chiqaradigan  
sanoat


**D**

Elektr, gaz, bug' bilan  
ta'minlash va havoni  
konditsiyalash

**E**

Suv bilan ta'minlash;  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va  
utilizatsiya qilish


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 57,1 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,2 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2023-yil

B

2,5 %

2024-yil



B

3,2 %



yanvar

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	22,6	25,0	2,4
Neft, ming t.	5,9	6,5	0,6




Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	2,1	1,6	-0,5
Chaqiq tosh, ming t.	0,0	3,8	3,8

### Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. soʻm

yanvar

FHI,% da



2024-yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 440,7 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 90,2 % ini tashkil etdi.


2023-yil yanvar

93,8 %

2024-yil yanvar

90,2%

Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,02 % ni (2023-yilning yanvar oylarida – 0,1 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 3,7 % (0,5 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 26,6% (19,5 %) va quyi texnologiyalisi – 69,6 % (73,7 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 45,7 % (2023-yilning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,9 % (2023-yilning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 75,6 %), boshqa no metall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi 9,4 % (2023-yilning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 123,3 %), mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 7,6 % (2023-yilning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,3 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi – 5,7 % (2023-yilning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 78,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,8 % (2023-yilning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 189,5 %)ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Neft bitumi




2022- y. 2023- y. 2024- y.

Paxta tolasi



2022- y. 2023- y. 2024- y.

Sement




2022- y. 2023- y. 2024- y.

O'simlik yog'i (tozalangan)




2022- y. 2023- y. 2024- y.

Tuz




2022- y. 2023- y. 2024- y.

Yumshoq bug'doy va spelta uni



2022- y. 2023- y. 2024- y.



2024-yilning yanvar oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 2,1 ming tonna paxta tolasi (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 27,4 % ga ko'p), 0,8 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (2,1 m. % ga ko'p), 0,3 ming tonna lint (2,0 m. % ga ko'p), 4,0 ming tonna neft bitumi (20,8 % ga ko'p) ishlab chiqarilib, ko'p o'sish sur'atlari kuzatildi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	1,6	2,1	0,5
Paxta tiviti (lint), ming t.	0,1	0,3	0,2
Neft bitumi, ming t.	3,3	4,0	0,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	7,8	3,0	-4,8
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	2,1	2,0	-0,1




## Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 72,6 bo'lsa, 2024-yilning yanvar oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi esa, 139,0 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 4,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 22,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 123,3 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 46,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 89,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 74,1 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 1063,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 93,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar - oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 113,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 41,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 62,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 42,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 113,4 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 205,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 103,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 %, fizik hajm indeksi 88,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 18,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 103,5 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2024-yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi 182,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 15,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 69,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,7 % ni, fizik hajm indeksi 78,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 27,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 134,7 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 191,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,8 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 157,1 % ga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	0,0	19,9	19,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	5,8	2,0	-3,8

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,8 % ini) tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd. so'm</i>	0,02	0,6	0,58
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd. so'm</i>	2,6	4,1	1,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 5,7 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,6 mlrd. so'm shuningdek, 4,1 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.